



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 396 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
A. Safarov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
Xolmurodova Sarvinoz	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
G'afforova Dildora Ergashevna	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
Yusupova Umida Zayniddin qizi	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
Z. N. Urunova, M. Jaborova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
Sattorova Shirinoy San'atovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements.....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor.....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислombек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni.....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction 205 A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati 208 Majitov Turg'unali Anvar o'g'li
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari 214 Ismoilova Muattar Ilyosovna
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari 219 Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish 222 Murodova Sayyora Qanoatovna
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari 226 Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari 230 Abdunabiyeva Kamola Mansurovna
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili 236 Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 240 Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish 245 Raximov Zokir Toshmirovich
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari 249 Temirov Shoirbek Raimjonovich
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish 253 Kimsanova Rahnamo Solijonovna
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish 257 Muratov Muzaffar Shermamatovich
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari 261 Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari 264 Oblayeva Lobar Erdonovna
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations 268 Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari 272 Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi 276 Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools 279 S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration 282 Shahlo Obidova
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish 286 Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 290 Turakulova Feruza Mamadoli qizi



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	
Oila tushunchasi uning ijtimoiy ahamiyati haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari.....	321
<i>Shokirov Xolida O'rozboq qizi, Abdurashidova Sarvinoz Akrom qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi	325
<i>Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li</i>	
Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash mexanizmlari	329
<i>Haqqiyeva Fotima Olimjonovna</i>	
O'zbekiston mustaqillik taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim paradigmalarning evolyutsion tahlili	333
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Sayfullayeva Parvina</i>	
Malaka oshirish tizimida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikka asoslangan yondashuvining ilmiy ahamiyati.....	338
<i>Sobirova Lobar Raximovna</i>	
Qutqaruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvning ahamiyati	343
<i>Abdunosir Abdurasulovich G'afurov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishi kamchiliklarini bartaraf etishda pedagogik yondashuv	347
<i>To'rayeva Dilbar, Zulayxo Nazarova</i>	
Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati	350
<i>Samadova Mahliyo, Zulayxo Nazarova</i>	
Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish	354
<i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna, Mustafayeva Dilfuza Jumanovna</i>	
Multimodal yondashuv asosida talabalarning ekologik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimining ahamiyati.....	358
<i>O'sarova Muborak Fahriddinovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari.....	362
<i>Kurbanov Dilmurat Marupjanovich</i>	
Shaxs kamolotida ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati	367
<i>Nazira Axmadjonovna Dadaboyeva</i>	
Individual yondashuv asosida maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi	371
<i>Xaydarova Zilola Normurodovna, Hasanov Samir Xayrulloevich</i>	



Tasviriy san'at mashg'ulotlarida differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari	375
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	
Onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri	379
Davlatova Ra'no Haydarovna, Islomova Shahlo Madat qizi	
Ajrim yoqasidagi oilalarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish	385
Tojibayeva Nargiza Keldibekovna	
Raqamli muhitda yolg'izlik fenomenining nazariy tahlili.....	389
Turg'unboyeva Nodira Baxtiyor qizi	
Психологические последствия буллинга для личности подростка и его социализации.....	392
Амирова Луиза Маратовна	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING UYG'UNLIGI

Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda axborot texnologiyalarining o'zaro uyg'unligi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena va kun tartibiga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar, raqamli platformalar va multimediyaviy vositalarining samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari va vositalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada o'qituvchi, ota-ona va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati alohida ta'kidlanib, o'quvchilarda sog'lom hayot tarziga oid bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning o'zaro ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush madaniyati, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, raqamli ta'lim muhiti, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, kun tartibi, o'quvchi kompetensiyasi, ta'lim samaradorligi, ota-ona va maktab hamkorligi.

Abstract: This scientific article analyzes the integration of modern pedagogical approaches and information technologies in the formation of a healthy lifestyle culture among primary school students. The study substantiates the effectiveness of interactive methods, digital platforms, and multimedia tools in developing students' skills related to healthy nutrition, physical activity, personal hygiene, and adherence to daily routines. In addition, the pedagogical conditions, methods, and tools for forming a healthy lifestyle culture within a digital educational environment are scientifically examined. The article particularly emphasizes the importance of cooperation among teachers, parents, and digital technologies, highlighting the role of innovative approaches in developing students' knowledge, skills, and competencies related to healthy living. The research findings are aimed at developing practical recommendations for enhancing healthy lifestyle culture within the primary education system.

Key words: primary education, healthy lifestyle, healthy lifestyle culture, pedagogical technologies, information technologies, digital educational environment, interactive methods, innovative approach, physical activity, healthy nutrition, personal hygiene, daily routine, student competence, educational effectiveness, parent-school cooperation.

Аннотация: В данной научной статье анализируются вопросы интеграции современных педагогических подходов и информационных технологий в процессе формирования культуры здорового образа жизни у учащихся начальных классов. В исследовании обоснована эффективность интерактивных методов, цифровых платформ и мультимедийных средств в развитии навыков здорового питания, физической активности, личной гигиены и соблюдения режима дня у школьников. Также с научной точки зрения раскрываются педагогические условия, методы и средства формирования культуры здорового образа жизни в цифровой образовательной среде. В статье особо подчеркивается значение сотрудничества между учителем, родителями и цифровыми технологиями, а также раскрывается роль инновационных подходов в формировании у учащихся знаний, навыков и компетенций, связанных со здоровым образом жизни. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций по развитию культуры здорового образа жизни в системе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, здоровый образ жизни, культура здорового образа жизни, педагогические технологии, информационные технологии, цифровая образовательная среда, интерактивные методы, инновационный подход, физическая активность, здоровое питание, личная гигиена, режим дня, компетентность учащегося, эффективность образования, сотрудничество семьи и школы.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jadallashib borayotgan davrda ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish ham muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Sog'lom turmush tarzi – bu to'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, psixologik barqarorlik va kun tartibiga amal qilish kabi omillarni o'z ichiga olgan kompleks tushunchadir.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va amaliy tajribaga asoslangan ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda bolalar orasida kamharakatlik, noto'g'ri ovqatlanish va raqamli qurilmalardan me'yoridan ortiq foydalanish natijasida sog'liq bilan bog'liq muammolar ortib bormoqda. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida erta yoshdan sog'lom hayot ko'nikmalarini shakllantirish zarurati kuchaymoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi esa ushbu jarayonni samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Interaktiv darslar, raqamli platformalar, mobil ilovalar va multimedia vositalari orqali o'quvchilarga sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish imkoniyati mavjud. Natijada o'quvchilarda sog'lom hayotga nisbatan ijobiy munosabat, barqaror odatlar va hayotiy kompetensiyalar shakllanadi, bu esa kelajakda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Tadqiqot maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda axborot texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishining nazariy va amaliy asoslarini aniqlash hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini asoslab berish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatining mazmun-mohiyatini va uning pedagogik ahamiyatini tahlil qilish.
2. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari va usullarini o'rganish.
3. Ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan samarali metod va vositalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va jismoniy tarbiya tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, ma'naviy kamoloti va ijtimoiy faolligini ta'minlovchi muhim pedagogik jarayon sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning keyingi hayot tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

A.X. To'rayevning ilmiy tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o'quvchilarning sog'lom xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Muallif sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari va motivatsion yondashuvlar samarali natija berishini ta'kidlaydi^[1].

O.E. Eshmuradov va A.X. To'rayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, kun tartibi, gigiyenik odatlar va jismoniy faollikning ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotchilar o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon bo'lishi zarurligini qayd etadilar^[2].

X.A. O'ralova va Sh. Ergashbaevning ilmiy ishlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o'rni tahlil qilinadi. Mualliflar sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy muhit va o'quvchilarning faol ishtiroki muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, T.I. Ismoilovning tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish o'quvchilarning motivatsiyasi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi^[3].

S. Zokirjonova va Sh. Ergashbaevning ilmiy ishlarida inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab beriladi. Mualliflar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam berishini qayd etadilar^[4].



H.I. Pozilov va A.Yu. Maxkamovning tadqiqotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning amaliy-metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar jismoniy faollik, sport mashg'ulotlari va sog'lom hayot tarziga oid pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi hamda funksional holatini yaxshilashini asoslaydilar [5].

A.S. Hamroyevaning ilmiy ishida raqamli resurslar yordamida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish masalalari yoritilib, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirishi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, N. Xudoyberganov, G. Abdunazarova va G. G'ofurovalarning tadqiqotlarida boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalari asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar pedagogik samaradorlikni oshiruvchi muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi [6, 7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi o'quvchilarning jismoniy faolligi, sog'lom xulq-atvori va motivatsiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik metodlar hamda axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanish sog'lom turmush tarzini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish jarayonini o'rganishda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, tizimli va integrativ yondashuvlar asosida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida sog'lom turmush tarzi tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari (jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, gigiyena, kun tartibi) hamda ularni o'quvchilarga singdirishning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik metodlar doirasida kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari va pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotning amaliy qismida boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish) hamda axborot texnologiyalari (multimedia vositalari, raqamli ta'lim platformalari, mobil ilovalar) asosida darslar tashkil etildi va ularning samaradorligi baholandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatining shakllanish darajasi aniqlanib, tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'zaro solishtirildi. Natijada zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning sog'lom hayot tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMASI

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va axborot texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishining samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlandi. Dastlabki diagnostika natijalari o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga oid bilimlari yetarli darajada shakllanmaganligini, ayniqsa, sog'lom ovqatlanish, kun tartibi va jismoniy faollik bo'yicha tushunchalari yuzaki ekanligini ko'rsatdi. Shundan so'ng tajriba guruhida interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, multimedia taqdimotlari, videodarslar hamda raqamli platformalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar tizimli ravishda olib borildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari qo'llanildi.

Tajriba yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika natijalari tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatdi. Xususan, o'quvchilarning sog'lom turmush tarzi haqidagi nazariy bilimlari kengayib, amaliy ko'nikmalari mustahkamlandi. Ular sog'lom ovqatlanish qoidalariga amal qilish, shaxsiy gigiyenaga rioya etish, kun tartibini to'g'ri tashkil etish va jismoniy mashqlarni muntazam bajarishga nisbatan ijobiy munosabat bildira boshladilar. Statistik tahlillar natijasida tajriba guruhidagi yuqori darajadagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, vizual va multimedia materiallar orqali berilgan ma'lumotlar o'quvchilarda tezroq va mustahkamroq o'zlashtiriladi. Shu bilan birga, o'yin elementlari va gamifikatsiya usullarining qo'llanilishi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni kundalik hayotga tatbiq etishga yordam berdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish faqat ta'lim jarayoni bilan cheklanib qolmasdan, oila va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarur. Ota-onalar ishtirokida tashkil etilgan targ'ibot ishlari va raqamli maslahat platformalari o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Biroq ayrim holatlarda texnik vositalarning yetishmasligi yoki o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi kabi muammolar kuzatildi. Bu esa kelgusida pedagoglarning AKT sohasidagi malakasini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini samarali shakllantirishga xizmat qilishini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda nafaqat bilim, balki barqaror hayotiy ko'nikma va ijobiy odatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar va axborot texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi asosida yanada samarali tashkil etilishi mumkin. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, multimedia vositalari va raqamli ta'lim platformalari o'quvchilarning sog'lom hayotga oid bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijobiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda tizimli yondashuv zarurligi asoslandi. Ya'ni, ta'lim jarayoni faqat dars bilan cheklanib qolmasdan, oila, maktab va ijtimoiy muhit hamkorligida olib borilgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyasi orqali o'quvchilarda sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, gigiyena va kun tartibiga rioya qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni barqaror shakllantirish mumkinligini tasdiqladi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar, xususan, texnik ta'minotning yetarli emasligi va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati ham aniqlangan bo'lib, bu yo'nalishda tizimli ishlarni kuchaytirish lozimligi qayd etildi. Kelgusida ushbu mavzu bo'yicha chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borish, innovatsion metod va vositalarni yanada takomillashtirish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'rayev, A.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari // *Inter Education & Global Study*. - 2024. - № 5. - B. 190-196.
2. Eshmuradov, O.E., To'rayev, A.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish // *Inter Education & Global Study*. - 2024. - № 5. - B. 183-189.
3. O'ralova, X.A., Ergashbaev, Sh. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish // *Global Science Review*. - 2025. - Vol. 4. - № 5. - B. 175-182.
4. Ismoilov, T.I. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish // *Global Science Review*. - 2025. - Vol. 4. - № 1. - B. 337-344.
5. Zokirjonova, S., Ergashbaev, Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali inklyuziv ta'limda sog'lom turmush tarzini shakllantirish // *Global Science Review*. - 2025. - Vol. 4. - № 3. - B. 414-420.
6. Pozilov, H.I., Maxkamov, A.Yu. Bo'lajak o'qituvchilar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning amaliy-metodik imkoniyatlari // *Qo'qon universiteti xabarnomasi*. - 2023. - № 1. - B. 412-416.
7. Hamroyevna, A.S. Raqamli resurslar yordamida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari // *Conference of Modern Science & Pedagogy*. - 2025. - Vol. 1. - № 2. - B. 55-60.
8. Xudoyberganov, N., Abdunazarova, G., G'ofurova, G. Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalari asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari // *University Research Base*. - 2024. - B. 252-254.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.